

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

XALQIMIZ “TARJIMAI HOLI”

U MILLIY G‘OYA VA QADRIYATLAR
BARDAVOMLIGI BILAN HAYOTIYDIR

Vatanimiz taqdiri va kelajagi, milliy taraqqiyotimiz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida turibmiz.

Konstitutsiya yaratilishidan maqsad inson qadrini, uning huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini ta'minlashdir. Shuning uchun ham 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari bo'yicha fransuz deklaratsiyasida qaysiki jamiyatda inson huquqlari kafollatlari, xususan, hokimiyatlar bo'linishi ta'minlanmas ekan, bunday jamiyat Konstitutsiyaga ega bo'lmasligi qayd etilgan.

Albatta, qanchalik erish tuyulmasin, har qanday mukammal ishlab chiqilgan Konstitutsiya o'z-o'zidan odamlar hayoti uchun eng zarur masalalar, masalan,

yo'llar yoki shifoxona-yu, maktablar qurib bermaligi mumkin. Biroq Konstitutsiya insoniyat tamaddunining eng muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Chunki qaysiki davlatda konstitutsionalizm, konstitutsiyaviy madaniyat o'rnatilgan bo'lsa, o'sha joyda ilm-fan rivojlanadi, qonun ustuvorligi ta'minlanadi, iqtisod, madaniyat taraqqiy etadi. Bir so'z bilan aytganda, inson qadri yuksaladi, farovonlikka erishiladi.

[▶ Davomi 3-betda](#)

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI
KUNI BAYRAMI XORIJDA HAM KENG
NISHONLANMOQDA

Shu kunlarda dunyoning turli mamlakatlarida doimiy va vaqtincha yashayotgan, ta'lim olayotgan, mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunni o'zgacha ko'tarinki ruhda bayram qilmoqda.

[▶ Davomi 3-betda](#)

MUNOSABAT

MAMLAKATLARNI XAVFSIZ KELAJAK
UMIDI BIRLASHTIRADI

Sayyoramizda yuz berayotgan global iqlim o'zgarishi tufayli keyingi yillarda issiq to'liqlar, kuchli shamollar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlar nisbatan ko'proq sodir bo'la boshladi, muzliklar erishi yanada kuchaydi. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Markaziy Osiyoda

ham sezilmoqda. Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar ko'p. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi.

[▶ Davomi 2-betda](#)

BUGUNNING GAPI

ILG'OR TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
VA MA'RIFAT QO'RG'ONI

Mamlakatimizda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yilib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga bel bog'landi. Keyingi yillar iqtisodiyotimiz, ijtimoiy-siyosiy hayotimiz, turmush tarzimiz, dunyoqarash va tafakkurimiz, qo'yingki, barcha sohada katta yuksalish, rivojlanish, ijobiy o'zgarishlar davri bo'lmoqda.

Ayniqsa, ta'lim tizimi, jumladan, oliy ta'limdagi islohotlar tarixiy ahamiyatga ega. Soha muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish, yoshlarga zamonaviy talablar asosida sifatli ta'lim berish bugungi kunning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Bu borada ilmiy faoliyatni yaxshilash va salohiyatni oshirishga



katta e'tibor qaratilmoqda. Urganch davlat universitetida ham ayni yo'nalishda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozir universitetimizda 96 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 37 ta magistratura mutaxassisligi va 3 ta qo'shma ta'lim dasturi

[▶ Davomi 5-betda](#)

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

KAMBAG'ALLIK
3,5 FOIZ qisqardiXitoy tajribasi yurtimiz sharoitida qanchalik
samara bermoqda?

Tibbiyotda aniq tashxis qo'ymasdan turib kasallikni davolash vaziyatni yanada og'irlashtiradi. Jamiyatdagi aksariyat muammolar ham shunday. Masalan, kambag'allik darajasini olaylik, mamlakatimizda bu boradagi raqamlar uzoq yillar davomida sir saqlab kelingan. Ammo bu bilan muammo hal bo'lib qolmadi, aksincha, kattalashib bordi. Shuning uchun bundan bir necha yil oldin yurtimizda ilk bor kambag'allik darajasi e'lon qilinganida ko'pchilik uchun kutilmagan voqe'lik bo'ldi.

Avval hayrat bilan qabul qilingan ko'rsatkich va aytilgan raqamlar, keyinroq tanqidiy tahlil etila boshladi. Biroq raqamlarni ochiqlashdan maqsad shunchaki xabarador qilish emas, balki kambag'allikka qarshi qat'iy kurashishdan iborat edi. Shunday bo'ldi ham. Yurtimizning har bir burchagida faollik bilan boshlangan harakat, aniq chora-tadbirlar natijasida 2022-yil yakunlariga ko'ra, kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani qayd etildi.



TARAQQIYOT MEZONLARI



Kambag'allikni qisqartirish tez va oson kechadigan jarayon emasligini ko'pchilik yaxshi tushunadi. Bu hududlarda aholi bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, iqtisodiy rivojlanish, turmush farovonligini oshirish kabi bir qancha yo'nalishlarni qamrab oladigan yaxlit

jarayondir. Agar harakatlar samarador bo'lmasa, ajratilayotgan katta mablag' o'zini oqlamasligi mumkin. Shu bois, har bir hudud mas'ullari zimmasiga aniq vazifalar yuklatilib, tizimli ishlar amalga oshirilyapti.

[▶ Davomi 4-betda](#)

BANDLIK

FAROVON YASHASH
FORMULASI

So'nggi yillarda ayollar huquqlarini himoya qilish, kasb-hunarga jalb etish orqali bandligini ta'minlashga e'tibor oshdi, yangi tashabbuslar qo'llab-quvvatlanyapti.

Kambag'allikni qisqartirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish dasturlari izchillik bilan ro'yobga chiqarilmoqda. Hududlarda "mahallabay", "xonadonbay" asosida aholi daromadlarini oshirish, bandligini ta'minlash, subsidiyalor yordamida o'zini o'zi band qilish yo'lidagi sa'y-harakatlar samarasini bermoqda. Hayotbaxsh islohotlarning mantiqiy davomi sifatida "Ayollar daftari"ga kiritilgan ishsiz, doimiy daromadga ega bo'lmagan xotin-qizlarga ko'mak ko'rsatish, og'irini yengil qilish, bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

[▶ Davomi 4-betda](#)

“O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI

ORZU-ISTAKLARIMIZ
RO‘YOBIGA XIZMAT
QILUVCHI DASTURIY HUJJAT

Bugun O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'sish, o'zgarish yaqqol ko'zga tashlanmoqda, ulkan yangilanishlar bo'y ko'rsatmoqda. Bunday tarixiy evrilishlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Qo'yilgan maqsad sari jiddiy itilish, qat'iy siyosiy iroda, ulkan yaratuvchanlik salohiyati bunga poydevor vazifasini o'tadi.

Xususan, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi doirasida odamlarni rozi qilish, aholi farovonligini ta'minlash, xalqimiz orzu-istaklariga yetishishi uchun salmoqli ishlar bajarildi. Prezidentimizning shu yil 11-sentabrda farmoni bilan tasdiqlangan

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi ham inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, yaqin kelajakda amalga oshirilajak islohotlarning tub maqsadlarini qamragan ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan hujjat ekani bilan ahamiyatlidir.

[▶ Davomi 2-betda](#)

YANGICHA YONDASHUVLAR

KO'RGAZMALI JARROHLIK DARSLARI
yosh fiziologlar uchun
qiziqarli va foydali

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti biologiya fakultetida yaqinda tashkil etilgan Fiziologiya ilmiy-tadqiqot markazida yangi innovatsion jarrohlik usuli taqdim etildi. Yangi O'zbekiston yosh fiziologlari maktabi a'zolari ushbu usulda quyonda jarrohlik amaliyotini bajardi.

[▶ Davomi 5-betda](#)



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



MUNOSABAT

MAMLAKATLARNI XAVFSIZ KELAJAK UMIDI BIRLASHTIRADI

Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda



Tuproq yemirilishi jarayoni 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Kuchli chang va qum bo'ronlari esa odatiy holga aylandi. Ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda. Bu ekologik hodisalar bugungi hayotimiz va kelajak taraqqiyotga jiddiy tahdiddir. Shu bois, uning oldini olish, salbiy ta'sirlarini kamaytirish, tabiat bilan uyg'un rivojlanish chora-tadbirlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ekologiya va iqlim muhofazasi sohasida tub islohotlar amalga oshirilib, fuqarolarimiz uchun qulay atrof-muhit yaratilayotgan, aholi punktlarining sanitariya-ekologik holati yaxshilanmoqda va yashil maydonlar kengaytirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan turli xalqaro minbarlarda bildirilayotgan muhim tashabbus va g'oyalar nafaqat mamlakatimiz, balki dunyoda barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan bilan ahamiyatlidir. Shu bois, bu taklif va tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan joriy yil 1-dekabr kuni Dubay shahrida o'tgan BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasining (COP-28) asosiy yalpi sessiyasi ishida ishtirok etgani hamda qator aniq taklif va amaliy tashabbuslarni ilgari surgani

ham dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etildi va qo'llab-quvvatlandi. Ayniqsa, Prezidentimizning nafaqat O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi, balki zaminimiz uchun birdek muhim bo'lgan dolzarb masalalarga e'tibor qaratgani diqqatga sazovor.

Mintaqamizda iqlim o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillardan biri Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish. Orolning qurigan tubida o'rmonlashtirish ishlarini amalga oshirish, Orolbo'yi hududi aholisi farovonligini yuksaltirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi besh yilda Orolning qurigan tubida qariyb 2 million gektar maydonga saksovul, cherkes kabi sho'r va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik urug'lari seplidi va ko'chatlari ekildi. Ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan "yashil qoplamalar" — himoya o'rmonzorlari barpo etish ishlarini olib borilishi Orol dengizining suvi qurigan tubidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, aholining hayoti va faoliyatiga ta'sirini yanada yumshatish imkonini beradi.



DOLZARB MAVZU

QISH BOSHLANDI, XAVOTIRGA O'RIN YO'QMI?

Tongotar ota yelkasiga to'nini tashlab, derazadan pastga qararkan, bolalarning shodon quvlab yurganini ko'rib kayfiyati ko'tarildi. Ularga termilgan, o'g'a taldi, o'timishni esladi...

Shaharga ko'chib kelganiga ham o'ttiz yilga yaqinlashib qolibdi. U paytlarda navqiron yigit edi. Bilagiga kuchi sig'may, toshni urib talqon qilgudek davrlar... Mahalladagi ko'p qavatli uylar yangi qurilgandi. Shaharda yashash orzusida shu uylardan xonadon xarid qilib, ko'chib kelgandi. Dastlabki yillari barchasi binoyidek kechdi. Qishda issiqqina, havas qilsa arzigulik sharoitlar ko'zni quvnatardi. Lekin bu ko'pg'a bormadi. Oradan yillar o'tgach, isitish tizimida muammolar paydo bo'la boshladi. Quvurlarning qaysidir joyi yorilib ketar, yana bir qismida issiq suv aylanmasdi.

Soha xodimlari ham muammoga

nomiga e'tibor qaratib, oxiri ko'rinish ham bermay ketadigan bo'ldi. Aholi murojaatlari, arizalari javobsiz qolaverdi. Bu orada vaqt o'tib, issiqlik tizimi umuman izdan chiqdi. Qishning ayozli kunlarida nafaqat Tongotar ota xonadonida, balki mahalladagi barcha ko'p qavatli uylarda yashovchi aholida bezovtalik boshlanardi. Avvallari qishloqdan kelgan qarindoshlar ularga havas bilan qaragan bo'lsa, keyinchalik ahvollariga achinadigan bo'ldi.

Yoshligida ko'pam sezilmagan ekan, otaxon nafaqaga chiqib, yoshi oltmishdan oshganda ozgina sovuqqa ham tobi qochadigan, oyog'i og'riydigan bo'lib qoldi.



— Odatda qish qishligini qilsin deymiz-u, lekin bu fasl yaqinlashgani sari hadik bilan sovuq kunlarga hozirlik ko'rishga shoshilamiz, — deydi Qarshi shahridagi "Sho'rtan" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Tongotar Abdiyev. — Hovida yashasangiz-ku bir yo'lini topishga imkon bor. Pechkaga ko'mir yoki o'tin yoqib, bamaylixotir o'tiraverasan. Ammo ko'p qavatli uylarda yashaydiganlarga chora topish

mushkul. Adashmasam, mahallamizdagi ko'p qavatli uylarda isitish tizimi ishlamay qolganiga o'n besh yillardan oshdi. Bizda qish fasli ancha qiyin o'tadi. Shu paytgacha har kim o'z bilganicha qo'lbo'la pechlar yasab deysizmi, boshqa bir ilojini qilibmi, qishdan amallab chiqib olardi. Ammo hamma-ning ham yetarli sharoit qilishga imkoniyati yo'q. Bir oz mablag'i borlar zamonaviy isitgichlar o'rnatib olgan.

Lekin yon qo'shning issiqqina xonadonda o'tirsa-yu, sen ko'rpaga yopinib, qatirab tunni o'tkatsang odamga alam qilarkan-da. Ayniqsa, o'tgan qishni ayt-maysizmi? Bu anomal sovuq deganlari barchani charchatib qo'ydi. Bir amallab shundan o'tib olganimizga shukr qildik. Biz kabi keksalar tugul yoshlar ham qiyinalib qoldi. Bu yilgi qishda ham sovuqda qiyinalib qolamizmi, degan xavotirda yurgandik. Quvonarlisi, bu mavsum biz uchun yaxshi o'tadigan bo'ldi. Sababi mahallamiz hududida yangi qozonxona qurildi. Hozir xonadonlardagi tizim quvurlari almashtirilmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 22-yanvardagi "2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Qarshi shahridagi "Sho'rtan" mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli 7-mittituman hududida joylashgan 38 ta ko'p qavatli uy uchun yangi qozonxona qurilishi belgilangandi. Shunga asosan, joriy yilda respublika byudjeti mablag'lari hisobidan loyiha qiymati 33,5 milliard so'm bo'lgan qozonxona qurilishi boshlab yuborildi.

Ushbu majmua 12 Gkal quvvatga ega bo'lib, Turkiyadan keltirilgan 14 MVtli uchta qozon o'rnatildi. Buning evaziga yiliga 1,7 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish imkoniyati yaratildi.

Markaz qurilishi jarayonida hududga olti kilometr qoplamali quvur tortildi. Issiqlik tarmoqlari yopiq tizimga o'tkazildi va yo'qotishlardan himoya qilindi.

Majmua 38 ta ko'p qavatli uyda gi bir

yarim mingdan ziyod xonadon hamda uchta ijtimoiy obyektini issiq suv va issiqlik bilan ta'minlaydi.

Joriy yil oktabr oyida davlatimiz rahbari Qashqadaryoga tashrifi chog'ida viloyat "Issiqlik manbai" davlat unitar korxonaning Qarshi shahrida yangidan bunyod etilgan markaziy qozonxonani borib ko'rgandi. Mutasaddirlarga qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini sifatli bajarib, energiya va issiqlik ta'minotini barqaror qilish, energiya tejankorlik madaniyatini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar bergandi.

Ayni paytda esa xonadonlardagi isitish tizimi quvurlari yangilanmoqda.

— Hozir yangi qozonxonamiz foydalanishga topshirilib, ko'p qavatli uylardagi isitish tizimi bosqichma-bosqich ishga tushirilmoqda, — deydi Qashqadaryo viloyati "Issiqlik manbai" davlat unitar korxonasi rahbari Qahramon Jo'rayev. — Albatta, barcha uylarni to'liq isitish bir oz vaqt talab etmoqda. Chunki ko'p yillar davomida bu yo'nalishda ish qilinmagan, quvurlar ishdan chiqqan, ba'zi xonadonlardan isitish tarmoqlari olib tashlangan. Shu bois, hozir tarmoqlarni to'liq ta'mirdan chiqarish va izolyatsiyalash ishlarini bajarilmoqda.

Demak, joriy yilgi qish mavsumini Qarshi shahridagi biz yuqorida tilga olgan 38 ta ko'p qavatli uyda yashovchi aholi issiq xonadonlarda hech bir muammasiz o'tkazadi.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



“O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI

Ibrohimjon FOZILJONOV,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

U mamlakatimiz va xalqimiz tarixining o'ziga xos yangi davriga poydevordir. Inson qadrini yuksaltirish, erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish eng oliy qadriyat sifatida qaralgan mazkur hujjat loyihasi muhokamalarida yurtodoshlarimiz asoslantirilgan taklif va tavsiyalari bilan faol ishtirok etdi. Bu esa "O'zbekiston — 2030" strategiyasining tarixiy hujjat bo'lishiga asos yaratdi.



korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlar doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirishdek muhim vazifalar taraqqiyotimizni tezlashtirish maqsadini ko'zlaydi.

Hujjatda qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish borasida ham qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, kelgusida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishi ta'minlanadi.

ORZU-ISTAKLARIMIZ RO‘YOBIGA XIZMAT QILUVCHI DASTURIY HUJJAT

Ushbu dasturiy hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo'lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar

dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, investitsiyaviy jozibadorlikni yuksaltirish



belgilangan. Mamlakatimizda keyingi yetti yillikda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan bu hujjat O'zbekiston xalqini adolatli taraqqiyot yo'lida jipslashtiradi. Strategiya islohotlar samaradorligini keskin oshirish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtaqchadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, xalq xizmatidagi adolati va zamonaviy davlatni barpo etishdek buyuk maqsadlarga xizmat qiladi. Uning har bir yo'nalishida inson qadrini ulug'lash, xalqimizni rozi qilish, munosib turmush sharoiti yaratish kabi ulkan maqsad va marralar ko'zda tutilgan.

Masalan, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtaqchadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish asosiy maqsad qilib olinmoqda. Bunda kelgusi yetti yillikda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard

va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish, iqtisodiyot

“

Bugun nafaqat xalqimiz, balki xalqaro hamjamiyat ham “O'zbekiston — 2030” strategiyasi yangi taraqqiyot yo'lini ta'minlovchi eng to'g'ri strategiya ekanini e'tirof etmoqda. U tom ma'noda yangi O'zbekistonda siyosiy-huquqiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha dasturulamal hujjatga aylandi.

sodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash kabi chora-tadbirlar belgilanganki, bular xalqimizning orzu va umidlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga, eksportchi

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi yangi taraqqiyot yo'lini ta'minlovchi eng to'g'ri strategiya ekanini e'tirof etmoqda. U tom ma'noda yangi O'zbekistonda siyosiy-huquqiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha dasturulamal hujjatga aylandi.

U MILLIY G‘OYA VA QADRIYATLAR BARDAVOMLIGI BILAN HAYOTIYDIR

Miravzal MIROQILOV,
yuridik fanlar doktori,
professor



Boshlanishi 1-betda

Konstitutsiyani, sport tilida aytganda, o‘yin qoidalari, deyish mumkin. Agar tomonlar qoidalariga amal qilsa, haqiqiy raqobat bo‘ladi, o‘z ustida ishlagan g‘alaba qozonadi. Tomonlardan biri ham qoidani belgilab, ham hakamlik vazifasini bajarsa, bu sog‘lom musobaqa emas. Shuning uchun hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy qoida sifatida vujudga kelgan.

Konstitutsionalizm o‘zboshimchalikning oldini oladi, davlat xizmatchisimi yoki oddiy fuqaromi barchani qonunga bo‘ysundiradi, fuqarolar huquqlarini himoya qiladi, amaldorlarning xalq oldidagi hisobdorligini ta‘minlaydi. Bunday huquqiy-siyosiy madaniyat shakllangan jamiyatlarda barcha muhim qoidalar keng jamoatchilik roziligi, ma‘qulovi, xalq oldida hisobdorlikni inobatga olgan holda qabul qilinadi.

Konstitutsiya – konsensus, ijtimoiy shartnoma

Konstitutsiya inson, jamiyat va davlat o‘rtasida erishilgan o‘ziga xos kelishuv (konsensus) ifodasi, barchamizning roziligidir. Bu hayotimizni tashkil qilish prinsiplari haqida kelishuv, davlat, uning siyosiy institutlari, oddiy odamlar hayoti va faoliyatida amal qiladigan ustuvor qoidalar, deganidir.

Uning afzalligi o‘laroq, davlat hokimiyati manbai jamiyatning biror-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs emas, balki xalq hisoblanadi. Shuning uchun ham jahon konstitutsiyashunosligida ushbu hujjatda nazarda tutilgan bebaho qadriyatlarini xalq qon bilan, ayrimlar o‘z hayoti, ko‘z yoshlari bilan yozgan, deyiladi.

Konstitutsionalizm barcha fuqarolarni buyuk shartnomaning tomonlari sifatida ko‘rib, davlatni respublika, ya‘ni jamoaning, ommaning ishi sifatida belgilaydi.

Konstitutsiya ijtimoiy shartnoma sifatida jamiyatdagi barcha qatamlar, guruhlar manfaatini hisobga oladi, ular o‘rtasida muvozanatni ta‘minlaydi. Shunday hujjatgina yashovchan bo‘ladi, chunki yaxshi jamiyat haqida barchaning qarashlari, qadriyatlari har xil, ayrim hollarda esa qarama-qarshi bo‘lib, mazkur qarashlar xilma-xilligi hisobga olinmasa, umumiy, barqaror hujjat qabul qilib bo‘lmaydi. Faqat fikr, so‘z erkinligi huquqini hurmat qiladigan, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan oladigan, eng muhimi, konsensusga kela oladigan jamiyatdagina to‘laqonli Konstitutsiyani yaratish mumkin.

Konstitutsiya — milliy g‘oya. U millat oldiga maqsad qo‘yadi va fundamen-



tal prinsiplarni belgilab beradi. Buni biz Asosiy qonunimiz muqaddimasida va uning 1-moddasida ko‘rishimiz mumkin: O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Ayrim konstitutsiyashunos mutaxassislar Konstitutsiyani “millatning tarjimai holi” sifatida ta’riflaydi. Ya’ni mazkur hujjatda millat, jamiyat o‘zini qanday ko‘rishi, qayerga intilishi, erishilgan marralar namoyon bo‘ladi.

Bosh qonun barchani jipslashtiradigan, fuqarolar o‘z orzu-umidlari, huquq va manfaatlari, ta’bir joiz bo‘lsa, dardu muammolari yechimini ko‘radigan hujjat hamdir. Bu hujjat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlagagina, odamlar o‘zining kundalik hayotida, oilasida, mahallasida uning ta’sir kuchini seza olsagina hayotiy bo‘ladi. Shuning uchun ham yangilangan Konstitutsiyada ushbu muhim jihatlar alohida e’tibor qaratildi.

Konstitutsiya millatning o‘ziga xosligini va qadriyatlarini namoyon qiladi. Bu Asosiy qonunimizning qator moddalari, xususan, Oila, bolalar va yoshlarga bag‘ishlangan bobda namoyon bo‘ladi.

Bolaga, ayniqsa, yetim bolalarga, ayolga, onaga, oilaga, ustozga, boshqa millatlar va elatlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga, yoshlarga hurmat-ehtimorga to‘la munosabati ufurib turgan normalarda milliy o‘ziga xosligimiz yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Konstitutsiya — huquqiy, ijtimoiy va siyosiy hujjat. Huquqiy hujjat sifatida hokimiyat organlarini qonun ustuvorligiga, adolatga bo‘ysundiradi, ular faoliyatini Konstitutsiya va qonunlar doirasida chegaralaydi.

Ijtimoiy hujjat sifatida insonlarni, aholining turli ijtimoiy qatlam va guruhlari, turli millat, elatlar manfaatli, xohishlari, qadriyatlarini o‘zida ifoda etib hamda umumlashtirib, jamiyatni shakllantiradi. Ushbu qoidalar odatda Konstitutsiyalarning muqaddimalari va boshqa qoidalarida, xususan, ijtimoiy-

iqtisodiy, madaniy huquqlarga oid normalarda o‘z ifodasini topadi.

Konstitutsiya siyosiy hujjat sifatida qaror qabul qiluvchi organlarni, davlat hokimiyati organlarining ko‘ppartiyaviylik, erkin, oshkora, adolatli saylovlar asosida demokratik shakllanishi va faoliyati asoslari hamda tartibini, ularning xalq oldidagi hisobdorligi va mas’uliyatini belgilab beradigan asosiy hujjatdir.

Bu – mening Konstitutsiyam

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng o‘z Konstitutsiyamizni qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo‘yilgan edi.



Bu safar yangicha yo‘ldan borilib, avval xalqimiz fikri, takliflari o‘rganildi, shundan so‘ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. Boshqacha aytganda, takliflarni xalqdan oldik, umumxalq muhokamasiga chiqardik, xalq vakillari — deputat va senatorlar uchdan ikki qism ovoz bilan referendumga qo‘yishga ovoz berdi, oxirgi so‘zni ham xalq aytdi, toki barchaning ovozi, u kim bo‘lishidan qat’i nazar, erkin, ochiq jaryonda namoyon bo‘ldi. Shu tariqa, yangilangan Konstitutsiya O‘zbekiston tarixida yagona muallifi va manbai bevosita xalq bo‘lgan, xalqning o‘zi imzo chekkan Asosiy qonunga aylandi. Boisi, unda bolalar, yoshlar, xotin-qizlar, keksalar, o‘qituvchilar, jismoniy imkoniyati cheklanganlar, xorijdagi vatandoshlarimiz, mahkumlar, sudlangan shaxslar, bir so‘z bilan aytganda, aholining barcha qatlamli huquq va manfaatlari hisobga olindi.

E’tibor beradigan bo‘lsak, Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Agar yo‘nalishlar kesimida qarassak, shaxsiy huquq va erkinliklar,

iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 3 barobar, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari 3,5 barobardan ko‘proqqa, oilaga bag‘ishlangani esa 2 barobar ortdi. Uchta yangi bob (amaldagi Oila bobiga qo‘shimcha bolalar va yoshlar, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bobiga qo‘shimcha madaniy va ekologik huquqlar, alohida advokatura bobi) qo‘shildi.

Konstitutsiyaning 15 ta normasida davlat shart-sharoitlar yaratishi, 16 ta normasida davlat kafolatlashi, 4 ta normada davlat qayg‘urishi alohida ko‘rsatib o‘tilganining o‘ziyoq davlatning maqsadi inson huquqlarini ta‘minlash ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada “inson” so‘zi avvaligiga nisbatan 3 barobar ko‘p, “bolalar” so‘zi qariyb 3 barobar, “yoshlar” so‘zi 6 barobar, “ayollar, xotin-qizlar” so‘zlari 2 barobar ko‘p, “nogironligi bor shaxs”, “aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari”, “ intellektual mulk”, “inklyuziv ta’lim” degan so‘zlar esa birinchi marta qo‘llanildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid normalar 3,5 barobardan ziyod oshdi.

Xususan, insonning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlatning oliy maqsadi ekani, O‘zbekiston tarixida birinchi marta xalqaro shartnomalar xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismiligi, agar xalqaro shartnomada qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalarini qo‘llanilishi, O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etilishi va kafolatlanishi belgilandi. Bundan tashqari, har kim qonunchilikka va xalqaro shartnomalarga muvofiq, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqliligi, davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishiga oid normalar mustahkamlandi.

Insonning eng asosiy huquqlari bilan bog‘liq masalalarni ilg‘or demokratik davlatlardagi kabi faqat sud yo‘li bilangina cheklash mumkinligi to‘g‘risidagi normalar kuchaytirildi, xususan, telefon eshituvlari, tintuv kabi harakatlar sudning qaroriga asosan, amalga oshirilishi belgilandi.

Asosiy qonunimiz barqarorligi va bajarilishi jamiyat a‘zolari kuchli ijtimoiy ruhiga, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy institutlar rivojlanganiga, fuqarolarning o‘z pozitsiyasini bildirishga ham ma’nan, ham amaliy tayyorligiga bog‘liq masaladir. Shuning uchun ham konstitutsiyaviy tartib huquqiy ong va madaniyatga, urf-odat, an’ana va qadriyatlarga, partiylar, parlament, ijro hokimiyati va sud idoralarning Konstitutsiya qoidalarini so‘zsiz bajarishiga bog‘liqdir.

Konstitutsiya matnini yaratish ishning bir qismi xolos, uning ijrosini ta‘minlash esa konstitutsiyaviy ta’limni, tegishli institutlar,

tartib-taomillar, qoidalarini o‘rnatishni taqozo etadigan va bir muddat davom etadigan jarayondir. Bu, birinchi navbatda, davlat xizmatchilarining ongi, dunyoqarashini o‘zgartirishni taqozo qiladi.

Shu maqsadda Prezidentimizning joriy yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Unda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi, davlat komissiyasi, ekspertlik kengashlari tasdiqlandi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqilishi, yangilangan Konstitutsiyaga muvofiqlik yuzasidan ilmiy ekspertizadan o‘tkazish, monitoring qilish, Konstitutsiya asosida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa qo‘llanmalarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy-metodik chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish, davlat fuqarolik xizmatchilari va sud-huquq tizimi xodimlarini o‘qitish kabi vazifalar belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya ijrosi jamiyat a‘zolarining erkin va demokratik jamiyat qadriyatlariga qanchalik fundamental sodiqiliga bog‘liq. Agar konstitutsiyaviy qoidalar demokratik qadriyatlarini mujassam etsa-yu, bu qadriyatlar odamlar orasida e‘zoz topmasa, xulq-atvori, amali unda bayon etilgan maqsadlarga to‘g‘ri kelmasa, eng a‘lo, mukammal qoidalar ham bajarilmay qolishi tabiiy, albatta.

Konstitutsiya o‘z-o‘zidan baxt keltirmaydi, undagi qoidalar o‘z-o‘zidan ishlab ketmaydi, bu huquq beradi, unga rioya qilsangizgina, yangi O‘zbekiston poydevoriga bir g‘isht qo‘yasiz.

Shu ma’noda aytish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiya, bu — bizning xohish-istaklarimiz ifodasi, undagi ezuq g‘oyalarni amalga oshirish esa o‘zimizga bog‘liq. Barcha harakatlarning faqat va faqat o‘z kuchimizga, imkoniyatlarimizga tayanishimiz zarur bo‘ladi.

BIZ VA DUNYO

Бошланиши 1-бетда

Joriy yil mamlakatimizning konstitutsiyaviy rivojlanishida g‘oyat muhim davr bo‘ldi — umumxalq referendumi asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilindi.

8-dekabr — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan tashkil etilayotgan bayram tadbirlari dunyo bo‘ylab O‘zbekiston fuqarolarini birlashtirishga xizmat qilmoqda va ularga bayramona xush kayfiyat ulashyapti.

Vengriyaning eng qadimiy oliy ta’lim muassasalaridan biri — Etyosh Loran universitetida O‘zbekiston Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan davra suhbatlari tashkil etildi. Vatandoshlar ishtirokida bo‘lib o‘tgan tadbirida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgarishlar mohiyati, shuningdek, O‘zbekistonda aholi turmush darajasini yanada oshirish, huquq va erkinliklarini ta’minlash, barcha sohalar-da olib borilayotgan izchil islohotlarning ahamiyati haqida fikr almashildi.

Ta’kidlanganidek, yurtimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, barqaror rivojlani-sh maqsadlari, aholi turmush darajasining o‘sishi Yevropa davlatlari, jumladan, Vengriya tomonidan ham yuksak baholanmoqda.

Tadbirida O‘zbekiston yoshlari Yevropa-ni-ning eng nufuzli universitetlarida ta’lim olishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratildi.



Ishtirokchilariga ko‘ra, ushbu omillarning barchasi o‘zbekistonlik talabalarning istiqboliga, jumladan, mamlakatimizning yanada gullab-yashnashiga hissa qo‘sha oladigan mutaxassislarni tayyorlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning Polshadagi elchixonasi tomonidan Vistula universitetida Bosh qonunimiz bayramiga bag‘ishlangan davra suhbatlari o‘tkazildi.

Unda Polsha oliy o‘quv yurtlarida tashil olayotgan va ushbu mamlakatda vaqtincha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yurtdoshlarimiz ishtirok etdi.

Tadbirida so‘zga chiqqan diplomatlar Konstitutsiya har bir davlatning suvereniteti, uning davlatchiligi rivoji, fuqarolarning turmush tarzi, jamiyatdagi o‘rni belgilab berishi hamda mustaqil, erkin, tinch va farovon hayotimizning kafolati bo‘lib xizmat qilishini ta’kidladilar.

Yig‘ilganlarga yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ilk bor ijtimoiy, dunyoviy, huquqiy davlat maqomini olgani, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadri-qimmatlari va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekani belgilab qo‘yilgani haqida ma’lumot berildi.

Davra suhbatlari yakunida Polshada o‘zbek talabalari assotsiatsiyasini tashkil etish hamda turli madaniy va sport tadbirlari asosida yangilandi. Agar yo‘nalishlar kesimida qarassak, shaxsiy huquq va erkinliklar,

Malayziyaning Osiyo va Tinch okeani texnologiya va innovatsiyalar universitetida ham ushbu sana munosabati bilan davra suhbatlari tashkil etildi. Tadbirida universitet vakillari va bu yerda tahsil olayotgan vatandosh talabalari qatnashdi.

So‘zga chiqqanlar, yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasi “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga asoslangan holda inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatlari, daxlsiz huquqlari va manfaatlari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganini ta’kidladi. Jumladan, Bosh qonunimizda yoshlar masalasi alohida bob darajasiga olib chiqilgani qayd etildi.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilari e’tiborga yoshlarga oid davlat siyosatining ahamiyati hamda mamlakatimiz hayotining iqtisodiy-iqtisodiy jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning

samarali natijalari haqidagi ma’lumotlar taqdim etildi.

Tadbir davomida yangi O‘zbekistonni barpo etishda yoshlarning roli, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda o‘zbek tilining xalqaro obro‘sin oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Mamlakatimizning Tokio shahridagi elchixonasida ham faol vatandoshlar ishtirokida ma’rifiy tadbir uyushtirildi.

Elchi Muhsin’hoja Abdurahmonov anjumanning ochilish qismidagi nutqida O‘zbekiston Prezidenti rahbarligida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yurtimizdagi bag‘rikenglik va tinchlikni asrab-avaylash, yoshlarni, shu jumladan, xorijdagi vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga ko‘rsatilayotgan e’tibor va ko‘mak hamda yaratilayotgan sharoitlar haqida batafsil ma’lumot berdi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi normalarning mazmun-mohiyati alohida ta’kidlandi. Qayd etilganidek, Asosiy qonunimizga kiritilgan o‘zgartishlarning tub mohiyati davlat siyosiy hayotida parlamentning roli va mavqeyini oshirish, shaxsiy mulk daxlsizligini ta’minlash, inson huquqlari himoyasi va ijtimoiy muhofazasini oshirishga qaratilgan.

Mamlakatimizning Dushanbe shahridagi elchixonasida esa “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi — inson sha’ni, qadr-qimmatlari va

huquqlarining mustahkam kafolati” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi. Unda Tojikistonda vaqtincha yashayotgan, ta’lim olayotgan va ishlayotgan vatandoshlar qatnashdi.

Anjumanda so‘zga chiqqan vatandoshlar bu sana ular hayotida muhim o‘rin tutishini bildirdi. Shuningdek, ular Bosh qonunimizning mamlakatimiz hayotida tutgan o‘rni, unga kiritilgan yangi qo‘shimcha va o‘zgartishlar xalqimiz turmush tarzi va farovonligiga, inson qadriyatiga yanada yuksalishga xizmat qilayotganini ta’kidladi.

O‘zbekistonning Jidda shahridagi (Saudiya Arabistoni) Bosh konsulligi tashabbusi bilan vatandoshlar ishtirokida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag‘ishlangan davra suhbatlari uyushtirildi.

Uchrashuv davomida shu yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xalqimizning yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topgani qayd etildi. Shuningdek, ishtirokchilar e’tibori mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlarga qaratildi.

Vatandoshlar Asosiy qonunimiz ko‘plab demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg‘or tajribaning eng yaxshi jihatlari, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining e’tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlariga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizmini o‘zida mujassam etganini qayd etdi.

KAMBAG‘ALLIK

3,5 FOIZ qisqardi

Xitoy tajribasi yurtimiz sharoitida qanchalik samara bermoqda?



Ziyodbek YO‘LDOSHEV,
Toshkent viloyati
kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik bosh boshqarmasi
boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

Birgina Toshkent viloyati misolida oladigan bo‘lsak, joriy yilning o‘n oyi davomida 481 mingdan ortiq aholi bandligi ta‘minlandi. Bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 87 ming 278 nafarga ko‘p. Jumladan, doimiy ish joylariga 153 mingdan ortiq, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda 262 mingdan ziyod hamda legalashtirish va bo‘sh ish o‘rinlari hisobiga 65 ming aholi bandligi ta‘minlangan. Buning ortidan viloyatda kambag‘allik darajasi 14,6 foizdan 11,1 foizga tushirilib, 17 mingga yaqin oila kambag‘allikdan chiqarildi.

Usullar ham, tajriba ham o‘xshash

Kambag‘allik global muammo bo‘lib, unga qarshi kurash BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda biz kambag‘allik darajasi haqida ko‘p gapiryapmiz, ammo uni belgilovchi aniq mexanizmlar to‘g‘risida har doim ham to‘liq tasavvurga ega emasmiz. Gap shundaki, kambag‘allik tushunchasiga yagona ta‘rif mavjud emas. Uni aniqlashda ham asosan, aholining daromad darajasiga e‘tibor qaratiladi. Biroq xorij tajribasi va olib borilgan tadqiqotlarimiz kambag‘allik darajasini faqat daromad bilan bog‘lash va nafaqa ajratilishida “tayinlanish” hamda “rad etilish” xatoliklariga yo‘l qo‘yilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ya‘ni yurtimizda kambag‘allikka qarshi kurashish barobarida, bu boradagi xorij tajribasi ham faol o‘rganilyapti. Mahalliy sharoitimizga eng yaqin, mos keladigan davlatlar tajribasi tanlanib, amaliyotga

qo‘llash ishlari ham boshlangan. Ana shunday davlatlardan biri Xitoy Xalq Respublikasi. Ushbu mamlakatning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha samarali tajribasi yurtimizda asosiy namuna sifatida tanlab olingan. Davlatimiz rahbarining topshiriq‘i bilan har bir viloyatda Xitoy tajribasi asosida aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha alohida dastur amalga oshirilishi belgilangan. Bunda kambag‘allik yuqori bo‘lgan tumanlarda yo‘l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o‘rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirishga e‘tibor qaratiladi.

Biz e‘tirof etayotgan Xitoy tajribasi qanday afzalliklarga ega? Qariyb bir yarim milliard aholisi bo‘lgan ushbu mamlakat o‘z fuqarolarining farovon turmushini ta‘minlash, kambag‘allik ko‘rsatkichlari ortmasligi uchun qanday choralar qo‘llaydi?

Ana shu tajribani o‘rganish maqsadida Toshkent viloyati delegatsiyasi joriy yil noyabr oyida Xitoyning Guanchjou, Nankan, Yanszi, Szinganshan va Nanchan shaharlarida bo‘ldi. Hududlardagi yirik korxonalar, sanoat zonalar, tadbirkorlik markazlari, qishloq joylarda aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlar, bandlikka ko‘maklashish markazlari faoliyati bilan tanishib, mavjud tajribani o‘rganib qaytdi. Bu tajribaning ko‘pi yurtimizda qo‘llanilyapti, endilikda, ularni yanada aniq mexanizimga solish lozim. Xususan, Toshkent viloyatida ham ularni faol qo‘llash kutilgan natijani beradi.

Masalan, Xitoyda tadbirkorlik qilish istagini bildirgan fuqarolarga davlat tomonidan bank krediti va boshqa ko‘maklar



moddiy resurslar ko‘r-ko‘rona berilmaydi. Yurtimizda ham tadbirkorlik qilish istagidagi fuqarolarga davlat dasturlari asosida qator imtiyozli kreditlar ajratiladi. Endilikda, ularni talabgorning qobiliyati, salohiyatidan kelib chiqib ajratish orqali imtiyozli kreditlarning maqsadsiz sarflanishi hamda muammoli kreditlar ortishining oldini olish mumkin. Aniq loyiha taklifiga ega tadbirkorlar qo‘llab-quvvatlanishi natijasida ishsiz fuqarolar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bandligi taminlanishiga ham erishiladi.

Hozir mamlakatimizda tadbirkorlar uchun barcha eshiklar ochiq. Qo‘llab-quvvatlashning qator usullari keng qo‘llanilyapti. Imtiyozli kredit, subsidiyalari ajratish, faoliyat erkinligini qonuniy ta‘minlash kabilar shular jumlasidan.



berishda ularning tadbirkorlik salohiyati va amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihasi istiqboliga e‘tibor qaratiladi. Buni o‘rganish uchun alohida mutaxassislar ishlaydi,

Toshkent viloyatida ham tashabbuslar ko‘lami keng. Xususan, joriy yilning shu davriga qadar aholini tadbirkorlikka jalb etish orqali bandligini ta‘minlash uchun 2

TARAQQIYOT MEZONLARI

Mamlakatimiz sharoitida bu tajribani keng qo‘llash imkoniyati mavjud. Hududlarimizda tadbirkorlikka o‘qitish kurslari bepul yo‘lga qo‘yilib, aholi orasida ommalashtirilayotgani boisi ham shunda. Bilim, yo‘l-yo‘riq, davlatdan imtiyozli yordam olib biznesini yo‘lga qo‘ygan bitta tadbirkor o‘z hududidagi o‘nlab odamlarni ish bilan ta‘minlayotgani buning amaliy isbotidir. Qolaversa, kichik va o‘rta biznesning qo‘llab-quvvatlanishi natijasida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar soni ortmoqda.

Odamlarga baliq emas, qarmoq beriladi

Xitoyda “dangasa hech qachon boy bo‘lmaydi”, degan oltin qoida bor. Shu bois, mamlakatda aholini kambag‘allikdan chiqarish uchun barcha tashkilotlar mas‘ul hisoblansa-da, boqimandalikka yo‘l qo‘yilmaydi. Odamlarga moddiy yordam ajratishdan ko‘ra, bandligini ta‘minlash, bo‘sh ish o‘rinlari yaratishga alohida e‘tibor qaratiladi.

To‘g‘ri, kambag‘allik ayb emas, ammo uni yuzaga keltirgan omillarga qarshi kurashmaslik katta xato. Ana shu omillarning biri, afsuski, dangasalik, boqimandalik bilan bog‘liq. Vaholanki, har qaysi mehnat ham mashaaqatli va albatta, halol, ter to‘kib topilgan non uyga baraka bo‘lib kiradi. Muhimi, inson ishsiz, daromadsiz qolmasin, to‘rt muchasi sog‘ bo‘la turib, boshqalarga boqimanda bo‘lmasin. Binobarin, bugun mamlakatimizda xalq farovonligi, aholi bandligi, fuqarolarning munosib yashash sharoitiga ega bo‘lishini ta‘minlash asosiy vazifalardan biriga aylangan. Buning uchun yaqin yillarda yaratilgan va jahonda muqobil bo‘lmagan “Mahallabay ishlash” tizimi eng muhim nuqtaga aylanib ulgurdi. Aholining yashash sharoiti va mavjud muammolari shu tizimning o‘zida o‘rganilib, zarur yechimlar berilyapti. Jumladan, viloyatimizda joriy yil hokim yordamchilari ko‘magida 660,5 milliard so‘mlik 2 527 ta loyihani amalga oshirish orqali 10 ming 356 ish o‘rni tashkil etilgani buning misoli.

Kambag‘al, ishsiz fuqarolarga subsidiya yoki moddiy yordam ajratish o‘rniga, ularni o‘z qiziqishiga ko‘ra, kasb-hunar yoki tadbirkorlikka o‘qitish, ishga joylashtirish asosiy maqsadga aylangan. Birgina aholini kasb-hunarga o‘qitish uchun har yili davlat tomonidan 200 milliard so‘m ajratilyapti. Umuman, ishsiz, muhtoj aholining doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun barcha yo‘nalishlarda aniq mexanizmlar ishlatilmoqda.

Mahallalardagi kambag‘al oilalarning aniq ro‘yxatini shakllantirib, ularga tegishli yordam ko‘rsatish borasida ham yurtimizda o‘ziga xos tajriba yaratildi. Bu ro‘yxat shunchaki tuzilmaydi. Unga kirgan har bir kambag‘al oila davlatning doimiy e‘tiborida bo‘lib, oila a‘zolarining har biriga o‘qish va ish bilan ta‘minlashdan tortib, barcha zarur yo‘nalishda alohida manzilli yordam ko‘rsatiladi, kambag‘allikdan chiqarish

choralari ko‘riladi. Bugungi kunda ayni shu yo‘nalishda mahallalardagi hokim yordamchilari tomonidan “Online-mahalla” platformasida aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual dasturlar ham tuzilmoqda. Endilikda ushbu dasturlarning tez, aniq va sifatli ishlab chiqilishi, manzilli yo‘natilishini jadallashtirish lozim.

Xitoy tajribasida turizmni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish ham yo‘lga qo‘yilib, keng ommalashtirilganiga guvoh bo‘ldik. Chunki turizm ayni davrga kelib, eng sardaromad sohalardan biri bo‘lishi barobarida, aholi bandligini ta‘minlashga xizmat qiladigan katta tizimga aylangan. Hududlarda sayyohlik majmualarini tashkil etish ommalashtirib boryapti. Odamlar dam olish uchun mablag‘ini ayamaydigan bugungi davrda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish darajasi boshqa sohalar bilan teng o‘sib bormoqda.

Bu oddiy aholi uchun ham daromad topishning qo‘shimcha manbaidir. Xitoyda ham go‘zal manzarali, o‘ziga xos iqlimga ega chekka joylar, sayyohlar ko‘p boradigan manzillarda istiqomat qiladigan aholi turizmdan yaxshigina foyda topadi. Ayrimlari o‘z xonadonini ijaraga bersa, boshqalari sayyohlarni mehmon sifatida qabul qilib, xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘ygan. Ana shunday tajribalar asosida bir necha yil oldin yurtimizda ham mehmon uylari tashkil etish boshlangan edi. Bu borada qonuniy asoslar ham yaratildi. Qarabsizki, hozir hududlarimizda ish boshlagan mehmon uylaridan oddiy odamlar daromad topib, boshqalar bandligini ham ta‘minlayapti.

Bu tajribani Toshkent viloyati hududlarida yanada keng ommalashtirish imkoniyati bor. Ayniqsa, sayyohlar oqimi ortib borayotgan go‘zal manzarali Angren shahri, Ohangaron, Parkent va Bo‘stonliq tumanlarining chekka qishloqlarida turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilyapti. Tadbirkorlarga ham keng imkoniyatlar berilmoqda. Maqsad esa ko‘proq dam olish maskanlari, sayyohlik majmualarini ishga tushirish ortidan bo‘sh ish o‘rinlari yaratish, aholi farovonligini ta‘minlash, iqtisodiy rivojlanishni oshirishdan iborat. Bu borada hududlarni drayver sohalar asosida ixtisoslashtirish tizimi ham qo‘shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, Bo‘stonliq tumani turizmga ixtisoslashgan. Shu bois, hududni rivojlantirishda ko‘proq ushbu yo‘nalishga e‘tibor qaratilyapti. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlarda ortiqcha yuklamlar kamaytirilib, asosan, xizmatlar sohasi rivojlantirilmoqda.

Umuman, yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish borasida Xitoy tajribasi asos qilib olingani o‘z samarasini beryapti. O‘tgan qisqa davrda amalga oshirilgan ishlar va erishilayotgan natijalar buning yaqqol isboti. Natijalar qog‘ozdagi raqamlaridagina emas, xalqning turmush darajasini o‘rtib, odamlar ishli bo‘layotgani, kambag‘al oilalar soni qisqarganida ham yaqqol ko‘rinayotgani yanada quvonarli.

BANDLIK

FAROVON YASHASH FORMULASI

Erkinjon NURALIYEV, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Farg‘ona viloyati kengashi raisi

Boshlanishi 1-betda

Bu bejiz emas. Joriy yilning 28-iyul kuni Prezidentimiz Farg‘ona viloyatida hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida huquq-tartibot sohasidagi ishlar haqida to‘xtalib, Farg‘ona viloyatini xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlikdan xoli hududga aylantirish tashabbusini ilgari surgan edi. Bu tashabbus farg‘onalik minglab xotin-qizlar hayot tarzini o‘zgartirdi, farovonligini ta‘minladi.

Xotin-qizlar o‘rtasida ishsizlikni bartaraf etish, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda bandligini ta‘minlash, muammolarini hal qilish maqsadida mutasaddi boshqarma va tashkilot rahbarlaridan iborat ishchi guruhlar tuzilib, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-



qizlar xatlovdan o‘tkazildi. Bu jarayonda 781 ming 772 xonadondagi 1 million 85 ming 565 oila qamrab olindi, 892 ming xotin-qiz bilan anketa-so‘rovnomalar to‘ldirildi. Tahlil doirasida 308 ming 973 nafari doimiy, 289 ming 878 nafari mavsumiy, 132 ming 163 nafari vaqtinchalik hamda 81 ming 297 nafari o‘zini o‘zi band qilgani ma‘lum bo‘ldi. Xatlov davomida 26 ming 703 nafar ishlash istagi bor xotin-qiz aniqlandi.

Shu maqsadda xotin-qizlarning o‘zini o‘zi band qilishning samarali yo‘llarini rivojlantirish bo‘yicha zarur choralar ishlab chiqildi, kasb-hunar o‘rganishga ishtiyoqi bor xotin-qizlar monomarkazlarda o‘zlari tanlagan kasbga o‘qitilmoqda. Ishlash istagini bildirgan ayollar kooperatsiyalarga birlashtirilyapti. Shuningdek, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda faol tadbirkorlar va ishsiz xotin-qizlar muloqoti tashkil etilib, korxonalarda yaratilgan sharoitlar opa-singillarimizga tanishtirib borilyapti.

Oltiariq tumanidagi “Hamza expo art tekstil” MCHJ paxta-to‘qimachilik klasterida 150 nafarga yaqin ishsiz xotin-qizga korxona ishlab chiqarish salohiyati va ishchi-xodimlarga yaratilgan sharoitlar tanishtirildi. Shu kunning o‘zida 44 xotin-qiz bilan mehnat shartnomasi imzolandi.

Toshloq tumanidagi “SMSHD TEX” MCHJda bo‘lib o‘tgan amaliy muloqotda 50 nafarga yaqin ishsiz xotin-qiz muqim ish o‘rinlari bilan ta‘minlandi.

— Shu kunga qadar ishsiz edim. O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi tomonidan



ishlab chiqarish korxonasida tashkil etilgan amaliy muloqotda o‘zimga mos ish topdim, — deydi Dilbarxon Valiyeva. — Maoshlari ham menga ma‘qul keldi, mehnat stajiga ega bo‘layapman. Yo‘lkira va tushlik ham ishxona hisobidan.

“Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasi direksiyasida o‘tkazilgan muloqotda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha ma‘lumotlar berildi. Ish izlayotgan oila bekalari Uchko‘prik tumani “Boboshbek” mahalla

fuqarolar yig‘ini hududidagi “Boboshbek” ishlab chiqarish va savdo kompleksida ishchi-xizmatchilarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. 53 nafar ishsiz xotin-qiz o‘zlariga munosib ish o‘rinlarini tanlab oldi.

Quva tumanidagi “Altindag textile” korxonasi 45 nafardan ziyod xotin-qiz bilan mehnat shartnomasi imzoladi.

— O‘zimga mos ish topganimdan xursandman. Korxonadagi mavjud sharoit va maosh menga ma‘qul bo‘ldi, — deydi

Gulsanam Xoliqova. — Bu imkoniyatlar haqida qo‘ni-qo‘shnilarimga ham aytdim. Ular ham ishlash taraddudida turibdi.

Xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, uy yumushlari, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda daromad topishiga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilgan ayollar kooperatsiyalarining o‘rni kundankunga ortib bormoqda. Kasaba uyushmalari tomonidan ajratilgan mablag‘ evaziga ishlab chiqarish xajmini yanada kengaytirgan Rishton tumanidagi “MM Porcelain” MCHJ korxonasida bugun 700 nafardan ortiq xotin-qiz mehnat qilmoqda. Berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan foydalanib, tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan barcha qadimiy Gulnora Usmonova eng ko‘p ish beruvchi ayol sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining moliyaviy ko‘magida “Gulnora Matqulobod bodomlari” ayollar kooperatsiyasiga asos solingan edi. Ayni kunda kooperatsiyada 500 nafardan ortiq xotin-qiz bandligi ta‘minlangan.

Sirasini aytganda, Farg‘ona viloyatida xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, viloyatni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan tashabbuslar aholi manfaati va turmush sharoitini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa oilalarda ahillik, qut-baraka manbai, bir so‘z bilan aytganda, farovon yashash formulasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.



BUGUNNING GAPI

ILG'OR TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ma'rifat qo'rg'oni



Bahrom ABDULLAYEV,
fizika-matematika fanlari
doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Talaba-yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bunyodkorlik ishlari davom etmoqda. Xususan, universitet hududida yangi Axborot-resurs markazi qurilmoqda. U ikki blokdan, jumladan, 5 qavatdan iborat 500 o'rinni kutubxona binosi hamda 506 o'ringa mo'ljallangan faollar zalidan tashkil topgan. Kutubxonaning har bir qavatida 66 o'ringa mo'ljallangan o'quv zallari, adabiyotlarni saqlash, qabul qilish va qayd qilish xonalari, kutubxonalararo abonent va ma'lumot-bibliografiya bo'limi, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun onlayn sinflar, internet tizimli kompyuter xonalari, "book-cafe" va yana boshqa zarur xonalar bo'lishi rejalashtirilgan. Shuningdek, universitet muzeyi ham mazkur binoda joylashishi ko'zda tutilmoqda.

Ayni paytda Urganch tumani hududida universitetning yangi talabalar turar joyi qurilmoqda. U 7 qavatdan iborat bo'lib, 600 o'ringa mo'ljallangan. Binoda ma'naviyat, kompyuter va sport anjomlari xonalari, kutubxona, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun alohida xonalar bo'ladi.

Yangi o'quv yilidan talabalar uchun yana qator qulayliklar yaratildi. Universitet binosi oldida avtobekat tashkil qilinib, avtobuslar yo'nalishlari yoshlarga qulay qilib muvofiqlashtirildi. Endilikda ular o'z yashash joyidan universitetgacha bitta transportda kelib-kitish imkoniga ega bo'ldi.

Oliyog'ohda o'quv-laboratoriya uskunalarini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham keng joriy qilingan. Bugungi kunda muassasada 61 ta o'quv laboratoriya bo'lib, barchasi tegishli kafedralar huzurida ochilgan. O'quv jarayoni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan talab darajasida ta'minlangan. 30 ta kompyuter va 12 ta lingafon sinfidan talim jarayonida faol foydalanilmoqda. Internetdan foydalanish va yagona tarmoqni shakllantirish maqsadida lokal tarmoq qamrovi 100 foiz ta'minlandi.

Eng samarali yo'l – muqobil energiyadan foydalanish

Yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish uchun qator imtiyozlar joriy qilinmoqda. Boisi, quyosh panellari xavfsiz, tejamkor, atrof-muhit uchun bezarar, har tomonlama qulay

bo'lgan energiya manbaidir. Bunday uskuna yordamida uyda ham, ish joyida ham ancha-muncha energiyani tejash mumkin. Iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish borasida belgilab berilgan aniq vazifalar ijrosi universitetimizda ham tizimli ravishda yo'lga qo'yildi. Joriy yilning o'zida muassasimizda quvvati 2200 kilovatt-soatlik quyosh panellari o'rnatildi.

Oliyog'ohimiz 2022-yilda 2404 kilovatt energiya ishlatgan. Endi buni quyosh panellari yordamida ortig'i bilan olishga erishildi. 60 ta yoritgichga o'rnatilgan mini-panellarni ham elektr energiyasini tejaydi. 200 litrli 30 dona suv isitish qurilmisidan foydalanish orqali esa yiliga

6 ming kilovatt-soat elektr energiyasi tejalandi bo'ldi. Shuningdek, isitish qozonlarini ko'mir yoqig'isida ishlashga moslash bo'yicha ham ishlar olib borildi. 15 ta ko'mir qozoni o'rnatilib, 225 tonna ko'mir zaxirasi shakllantirildi. Bularning barchasi budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik

Xalqaro aloqalarimiz tobora kengayib bormoqda. Hozir 35 ta davlat bilan 145 dan ortiq hamkorlik memorandumi mavjud. O'tgan o'quv yili davomida 400 dan ziyod professor-o'qituvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirgan bo'lsa, ushbu o'quv yilida ham bu jarayon izchil davom etmoqda. Chet elning nufuzli oliyog'ohlari-dan malakali professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etilmoqda.

Jumladan, iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha AQSHning Blumsburg universitetidan professor Razzaghi Mehdi ijtimoiy-iqti-

bermoqda. Joriy yil sentyabr oyida Turkiyadagi Boshkent universiteti Alisher Navoiy markazi mudiri, professor Abdurahmon Go'zal o'zbek filologiyasi fakulteti talabalariga mahorat darslarini o'tdi.

Malayziya xalqaro islom universiteti



va oliyog'ohimiz o'rtasida O'zbekistonning madaniy merosini o'rganish, betakror arxitektura namunalari tadqiq etish, turizm tarmog'ini kengaytirish va targ'ib qilish yo'nalishidagi kelishuvlarga binoan, 2023-yil 22-sentabr — 1-oktabr kunlari mazkur oliyog'ohning arxitektura fakulteti professor-o'qituvchi va talabalaridan iborat 33 kishilik



sodiy fanlar fakultetida, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha Turkiyaning Egey davlat universiteti professori Nilay Dereobali pedagogika fakultetida dars o'tdi. Hozir ingliz tilini 4 aspektida chuqur o'rgatish bo'yicha "English Language Fellow" dasturi doirasida 10 oy muddatga Rachel Baird — Alahmad xorijiy filologiya fakultetida dars

delegatsiya muassasamizda bo'ldi. Ular ikki haftalik ilmiy tadqiqot dasturi davomida universitetimizning arxitektura kafedrasini hamkorlikda Xiva shahri madaniy meros obyektlari misolida ichanqal'a majmuasi bilan yaqindan tanishib, ilmiy tadqiqot olib bordi. Endi zamonaviy skaner texnologiyalari yordamida Juma masjidining 3D modeli yaratilib, ilmiy ishlar natijasi



1 jildli o'quv qo'llanma shaklida ingliz va o'zbek tillarida chop qilinishi rejalashtirilgan. Bu nafaqat ilmiy hamkorlikka, balki viloyatimiz turizm salohiyatini oshirishga ham munosib hissa bo'ladi.

26-27-sentabr kunlari esa Fransiyaning Puatle universiteti delegatsiyasi mehmonimiz bo'ldi. Ikki oliyog'oh o'rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirish, professor-o'qituvchilar va talabalar bilan uchrashish, ma'ruza va seminarlarda ishtirok etish, o'quv va ilmiy jarayon bilan tanishish maqsadida tashkil etilgan tashrif doirasida istiqbolli hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.

Janubiy Koreyaning Sun Shung Hyang universiteti delegatsiyasi a'zolari bilan o'tkazilgan uchrashuvda hamkorlik kelishuvlariga erishish istagi bildirildi.

Oliyog'ohda koreys tilining chet til sifatida o'qitilishi 2006-yildan boshlangan. Yildan-yilga talabalarining koreys tili va madaniyatiga qiziqishi oshib bormoqda. Shu sababli 2023-2024-o'quv yilida filologiya va tili o'qitish (koreys tili) ta'lim yo'nalishi ochildi. Hozir 25 talaba mazkur yo'nalishda ta'lim olmoqda.

Universitetda hamkor xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan muntazam xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Pedagog kadrlar va ilmiy xodimlar malakasini oshirish, tajriba almashish maqsadida joriy yil ikkinchi yarim yilida 64 professor-o'qituvchi AQSH, Belarus, Chexiya, Germaniya, Hindiston, Italiya, Polsha, Turkiya, Portugaliya, Rossiya va Sloveniyaning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlariga yuborildi. Talabalar almashinuv dasturlari doirasida 84 talabamiz Yevropaning qator nufuzli oliy ta'lim muassasalari o'quv va amaliyot kurslarida ishtirok etdi.

Shuningdek, Janubiy Koreya, Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Tojikiston, Ozarbayjon, Qozog'iston va Xitoy oliy ta'lim muassasalaridan 107 talaba o'quv-amaliyot kurslari, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va ilmiy tadqiqot qilish maqsadida universitetimizga keldi. "El-yurt umidi" jamg'armasining doktorantura dasturlari doirasida TOP-300 talikka kirgan chet el oliyog'ohlarida 11 nafar yosh olimimiz tahsil olmoqda.

2024/2025-o'quv yili uchun Belarus milliy texnika universiteti bilan iqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo'yicha 1+1 va Turkiyaning Egey universiteti bilan filologiya tillarni o'qitish: nemis tili bakalavriat yo'nalishida 2+2 format bo'yicha hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash rejalashtirilgan.

Ilmiy faoliyat samaradorligi

Universitetimizda yosh avlodning barkamol voyaga yetishi, sifatlari va mukammal ta'lim olishi hamda raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishini ta'minlash bilan birga, ilm-fanni rivojlantirishni ham ustuvor vazifa qilib belgilaganmiz. Eng avvalo, jahon standartlariga mos uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy laboratoriyalar tashkil etishni bosqichma-bosqich amalga oshirdik. Ularni zarur reaktivlar, materiallar va butlovchi qismlar bilan uzluksiz ta'minlashga erishdik. Ilmiy laboratoriyalar moddiy-texnik bazasi xarajatlarga ajratiladigan mablag' salmog'ini oshirdik, yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yubordik.

Pirovardida, universitetimiz olimlari buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'analari munosib davom ettirgan holda jahon va mamlakatimiz rivojiga xizmat qiladigan muhim, tarmoq korxonalarida mavjud texnik-texnologik muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy ishlanmalar borasida tadqiqotlar olib borib, milliy iqtisodiyotni rivojlantiruvchi innovatsion mahsulotlar yaratmoqda.

Bugungi kunda universitetda qariyb ming nafar professor-o'qituvchi ishlamoqda. Ulardan 304 nafari ilmiy darajaga ega bo'lib, ilmiy salohiyat 31 foizni tashkil qiladi. 13 mutaxassislik bo'yicha 6 ta ilmiy kengash faoliyat yuritmoqda. 1 ta texnologik park va 1 ta biznes inkubator markazimiz ham mavjud, faoliyati samarali yo'lga qo'yilgan. So'nggi yilda ishlanmalar sohasida 2 milliard so'mdan ortiq mahsulot sotilgan bo'lib, oxirgi 2 oyda yarim milliard so'mlik yangi turdagi innovatsion mahsulotlar sotish bo'yicha shartnomalar imzolangan. Keyingi ikki yilda universitet tomonidan 1 milliard 465 million so'mlik katta va kichik startup loyihalar moliyalashtirilgan.

Universitetimizda yarimo'tkazgichli quyosh elementlari va lazer fizikasi ilmiy o'quv

markazi tashkil etildi. Markazda ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadida zamonaviy uskunalar keltirildi. Bu yerda fizika kafedrasida professor-o'qituvchilari va doktorantlari ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish borasida ikkita drayver loyiha amalga oshirilmoqda. Loyihalar yakunida ilmiy tadqiqot ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish uchun tavsiyalar beriladi. Shuningdek, quyosh panellari yig'ish liniyasini ishga tushirish orqali iqlim sharoitimizga mos mahsulotlar yig'iladi.

Hozir markazda "Quyosh elementlarida foydalaniladigan nanotuzilmali gidrofobik va supergidrofobik materiallarni o'rganish", "Quyosh batareyalari uchun samarali kompozitsion shaffoflashtiruvchi qoplamalar yaratish", "Quyosh panellari turli tashqi omillarning ta'sirini kompleks o'rganish uchun kompyuterda boshqariladigan uskuna ishlab chiqarish" singari drayver loyihalar xitoylik hamkorlar bilan birgalikda ro'yobga chiqarilmoqda.

Ma'naviyat va go'zalik dargohi

Tobora globalashayotgan zamonda yoshlarning ruhan sog'lom, keng dunyoqarashli, qat'iy hayotiy pozitsiya va turli yot g'oyalarga qarshi tura oladigan xislatlarga ega bo'lishi ustuvor masalaga aylanmoqda. Bu borada ota-ona va ta'lim muassasasi o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda universitetda talabalarining ota-onalari hamda rahbariyat o'rtasida muntazam ochiq muloqotlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Bunda "Ota-onalar kongressi"ning o'rni katta. Bu uchrashuvlarda ota-onalar ta'lim tizimi va o'quv jarayoni, ichki tartib-qoidalar va talaba-yoshlar sifatlari bilim olishi uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lmoqda. O'z navbatida, ular ham o'quv jarayoniga doir fikr va takliflar, tavsiyalarni ilgari suradi.

Talaba-yoshlarni vatanga sadoqat, muhabbat ruhida tarbiyalash, ular qalbidagi milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlariga sodiqlik, hurmat tuyg'ularini singdirish, buyuk allomalar ilmiy-madaniy merosini o'rganish, tanishtirish, keng targ'ib qilish maqsadida doimiy tarzda o'tkazib kelinayotgan ma'naviyat-ma'rifiy tadbirlarning ham ahamiyati katta.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Urganch davlat universiteti tomonidan har yili "dolzarb 40 kunlik"da samarali ishlar bajarilmoqda. Jumladan, kuzgi mavsumda ko'kalmarlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish, yashil maydonlarni kengaytirish kabi xayrli ishlarining uzviy davomi sifatida oliyog'oh hududida "Ustozlar bog'i" tashkil etildi. Kuzgi mavsumda 110 tup archa, 150 tup qarag'ay, 80 tup olcha, 60 tup gujum, 40 tup terak va 400 tup boshqa ko'chat qadaldi va ularning parvarishiga alohida e'tibor qaratilyapti. O'quv tajriba maydonidan 1 gektar ajratilib, 2000 tup olxo'ri ko'chati ekildi. Ular ham yaqin istiqbolda xuddi yoshlarimiz kabi unib-o'sadi va meva beradi.



YANGICHA YONDASHUVLAR

KO'RGAZMALI JARROHLIK DARSLARI

yosh fiziologlar uchun qiziqarli va foydali



Olimlarning aytishicha, o'tkir va xronik eksperimental, "in vivo" va "in vitro" tajribalari o'tkazishda, ko'rgazmali jarrohlik darslarida, asosan, quyon va kalamushlardan foydalaniladi. Bu bejiz emas.

Boshlanishi 1-betda

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent tibbiyot akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan mashg'ulotda nafaqat yurtimiz oliy o'quv yurtlari talabalari, balki qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Chexiya, Belarus universitetlari fiziolog olimlari, talabalar onlayn ishtirok etdi.

Inson salomatligi va farovon hayotida fiziologiyaning o'rni g'oyat katta. U hayot haqidagi fan bo'lib, tibbiyot, veterinariyaning asosidir. Qolaversa, sog'lom turmush tarzi aynan inson fiziologiyasiga bog'liq

Dunyodagi eng nufuzli Nobel mukofoti ham birinchi bo'lib fiziologiya va tibbiyot yo'nalishi bo'yicha beriladi. Biroq mam-lakatimizda fiziologiya uzoq yillar e'tibordan chetda qolib ketdi. Ilm-fan va ta'lim rivoji yo'lidagi tizimli ishlar tufayli yurtimizda mazkur fan rivojida yangi sahifalar ochilmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti odam va hayvonlar fiziologiyasi kafedrasida huzurida Fiziologiya ilmiy-tadqiqot markazi hamda Yangi O'zbekiston yosh fiziologlari maktabi ochilgani buning yorqin dalilidir.

Markaz va yosh fiziologlar maktabi oldiga qo'yilgan asosiy vazifa talaba-



lar, yosh olimlar orasida fiziologiya fanini keng targ'ib qilish, jahon fiziologlari tajribasini chuqur o'rganishdan iborat. Shu bilan birga, bo'lg'usi mutaxassislarni innovatsion fiziologik laboratoriyalar bilan yaqindan tanishtirish, mustaqil eksperimental o'tkazish orqali yuqori malakali, professional, bugun-ing talabiga mos kadrlar tayyorlashga ko'maklashish maqsad qilingan. Shu bois, mashg'ulotlar innovatsion usul va texnologiyalardan foydalanilgan holda o'tkazilyapti. Chunki nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashsa, yanada mustahkamlanadi, yoshlarni yangiliklarga ruhlantiradi.

Navbatdagi mashg'ulotda "Quyon ichagida innovatsion fiziologik surunkali (in vivo) jarrohlik usuli" mavzusida jarrohlik amaliyoti bajarildi.

Bugungi mashg'ulotimizda fiziologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lgan ovqat hazm qilish mavzusiga murojaat qildik, — deydi Fiziologiya ilmiy-tadqiqot markazi rahbari, akademik Bakriddin Zaripov. — Innovatsion "in vivo" usulida quyon ichagi izolyatsiya qilinib, fistula qo'yildi. Bu ovqat hazm qilishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishga qaratilgan jarrohlik amaliyotidir. Uning ahamiyati shundaki, operatsiyadan so'ng talaba va yosh tadqiqotchilarning ovqat hazm qilish

tizimi, xususan, ovqat so'rilishi, parchalanishi, vitamin, yod va toksik moddalarning organizmga ta'sirini tirk quyon modisida o'rganadi. Quvonarlisi, yosh olimlar, bakalavr va magistr-lar ushbu jarayonning kuzatuvchisi emas, bevosita ishtirokchisi bo'ldi. Bu esa nazariy bilim-larini amaliyotda sinab ko'rish imkonini berdi.

Olimlarning aytishicha, o'tkir va xronik eksperimental, "in vivo" va "in vitro" tajribalari o'tkazishda, ko'rgazmali jarrohlik darslarida, asosan, quyon va kalamushlardan foydalaniladi. Bu bejiz emas. Chunki ushbu jonivorlar fiziologik funksiyalari, jumladan, ovqat hazm qilish, qon aylanish, gormonlar ishlatish va boshqa jihatlar bilan odamlarga eng yaqin hisoblanadi.

Innovatsion mashg'ulotda jarrohlik uskunalarini, ularning yaratilish tarixida Abu Ali ibn Sino bobomizning beqiyos xizmati, chok turlari, ichakni izolyatsiya qilish va fistula qo'yish kabi nozik masalalar keng tushuntirilib, jarrohlik amaliyotidan so'ng jonivorlarni parvarishlash bo'yicha ma'lumot berildi. Xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda bunday mashg'ulotlar muntazam o'tkazilishi belgilab olindi.

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



SAN'ATIMIZ DARG'ALARI

Halima Nosirova: Men hech qachon sahnani tark etmayman...

U 24 yoshida O‘zbekiston va sobiq sho‘rolar davlati xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan. Bu o‘sha davr uchun ham, bugun ham juda katta muvaffaqiyat. Gap birinchi o‘zbek opera xonandasi, ajoyib ovoz sohibasi Halima Nosirova haqida ketayotganini bilgan bo‘lsangiz kerak.

1913-yil 7-dekabrda Qo‘qon shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Tog‘lik qishlog‘ida yashovchi kosib Muhammad Nosir va uy bekasi Xosiyatxon oilasida uchinchi qiz dunyoga keladi. Unga Halima deb ism qo‘yishadi. Muhammad Nosir san‘at va she‘riyatni yaxshi ko‘rar, kitob o‘qir, dutor chertar, qo‘shiqlar aytardi. Xosiyatxon ham shirali ovoz sohibasi bo‘lib, uyda qo‘shiqlar xirgoyi qilib yurardi. Shundan bo‘lsa kerak, Halimaning qabida yoshligidan san‘atga havas uyg‘onadi.

Oradan ko‘p o‘tmay, oilada o‘g‘il farzand — Rasuljon tug‘iladi. Shu orada oilaning katta qizi Hojarni turmushga berishadi. 1918-yili oila boshiga musibat tushadi — Muhammad Nosir vafot etadi va qiyin ahvolda qolgan Xosiyatxon farzandlari bilan Qo‘qonga yo‘l oladi. U shaharda yaxshi odamlar yordamida ishga kiradi. Farzandlari Oysha, Halima va Rasuljonni bolalar uyiga joylashtiradi.

Halima va opasi Oysha bolalar uyida o‘qishni o‘rganadi. Yosh bo‘lsa-da, drama to‘garagi ishini faol kuzatadi. Sahnada ro‘y berayotgan voqealarni tomosha qilish unga juda qiziq edi. Ko‘plab qo‘shiq va she‘rlarni yodlaydi va xirgoyi qilib yuradi.

Bir kuni Qo‘qonga Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi konsert brigadasi keladi. Shu munosabat bilan shahardagi bog‘da tumonat odam yig‘iladi. Ular orasida bolalar uyi tarbiyalanuvchilari ham bor edi. Sahnada parajisiz qiz paydo bo‘ladi va jo‘shib qo‘shiq kuylay boshlaydi. Qo‘shiqni hamma berilib tinglaydi. Shu payt birdan o‘q ovozi eshitiladi. Atrof ostin-ustun bo‘lib ketadi. Qiziqchi Yusufjon Shakarjonov qayerdandir parajni topib, ashula aytgan qizning yuzini yopadi va ular bir zumda yashirinadi. Keyinroq Halima bu ayol Tamaraxonim ekanini bilib oladi. Kechqurun bolalar voqeani muhokama qilishadi. Qo‘shiq aytgan qiz Halimada juda katta taassurot qoldirgan edi. Uning har bir harakatini o‘zicha takrorlaydi va qizaloqning qalbidan san‘atga ishtiyoqi yanada avj oladi.

1922-yil bahorida Qo‘qonga komissiya kelib, Toshkent xotin-qizlar pedagogika texnikumiga o‘quvchilar tanlaydi. Bu haqda bolalar uyi direktori yig‘ilishda e‘lon qiladi. O‘qishni xohlaydiganlar juda ko‘p edi. O‘sha kuni kechqurun farzandlarini olib ketish uchun kelgan onasini Halima savolga tutadi:

— Ayajon, dugonalarimni Toshkentga o‘qishga olib ketmoqchi, bundan xabaringiz bormi?

— Xabarim bor, komissiya xohlovchilarning barchasini olib ketmoqchi. Chunki mamlakatga juda ko‘p o‘qituvchi kerak. O‘qituvchilik ayol uchun juda faxrli kasb, — deydi onasi.

Shunda Halima onasiga qarab:
— Men Tamaraxonga o‘xshab artist bo‘lishni xohlayman, — deydi.
— Qizginam, — deydi onasi. — Albatta, bir kuni artist bo‘lasan. Ammo buning uchun juda ko‘p o‘qish kerak...

1922-yil kuzida to‘qqiz yoshli Halimani Toshkent pedagogika texnikumi tayyorlov bo‘limi birinchi kursiga qabul qilishadi. Texnikum huzurida internat bor edi. Uzoqdan kelganlarning barchasi shu internatga joylashadi. Sharoit qanchalik yaxshi bo‘lmasin, yosh Halimaning internatga ko‘nikib ketishi qiyin kechadi. Kunlarning birida direktor Saodatxon Halimaning kayfiyatsiz turganini ko‘rib, uni katta zalga olib kiradi. Bu yerda royl bor edi. So‘ng royalda musiqa chaladi. Halima musiqani jimgina tinglar ekan, onasini, u aytgan qo‘shiqlarni eslaydi.

— Senga bu musiqa yoqdimi? — deb so‘raydi Saodatxon.

— Juda yoqdi, iltimos, menga musiqa chalishni o‘rgating, — deydi Halima. Shunday qilib, u texnikumda musiqa bilan shug‘ullana boshladi.

Boku teatr texnikumi talabasi

1924-yili O‘zbekiston hukumati yurtimizning turli burchaklarida yashovchi bir necha iqtidorli yoshni Boku teatr texnikumiga jo‘natadi. Ular orasida Halima Nosirova ham bor edi. Stipendiya ozligi va yashash sharoiti og‘irligiga qaramay, o‘zbekistonlik bolalar juda zavqli hayot kechirishdi. Uzeir Hojibekovning “Arshin mol olan” musiqali komediyasini sahnalashtirgani talabalar hayotida unutilmas voqea bo‘ladi. Halima bu sahna asarida Gulchehra rolini ijro etadi. Ta‘lilda O‘zbekistonga qaytgach, ular “Arshin mol olan”ni bir necha shaharda namoyish etib, olqishlar oladi.

Talabalar yozgi ta‘lidan so‘ng Bokuga borgach, qayg‘uli xabar — yosh aktrisa Tursunoy Saidazimova turmush o‘rtog‘i tomonidan o‘ldirilganini eshitadilar. O‘sha paytda Tursunoy Samarqand teatrida ishlardi. Shu bois, teatrga yosh, iqtidorli aktrisa izlashadi.

Kunlarning birida texnikum rahbari Halimani huzuriga chaqiradi. Stulda jiddiy qiyofali, qotmadan kelgan bir odam o‘tirardi. U Halimaga diqqat bilan qaraydi va o‘tirishga taklif etadi.

— Yoshingiz nechada? — so‘raydi u.
— O‘n beshda.
— O‘n beshda? Bu inson hayotining eng go‘zal payti... Siz teatrdan ishlashni istaysizmi?
— Ha, — sekingina javob beradi Halima.
— Yaxshilab o‘ylab ko‘ring. Siz

bo‘lib qoldik. O‘sha paytdagi suhbatlarimizdan birida men unga o‘zimgin eng yaxshi ko‘rgan ashularimdan birini aytib berganimda berilib tingladi va “Sen ashula aytishga o‘qishing kerak. Sendan opera artistikasi chiqadi, ajoyib ovozing bor”, dedi. Uning maslahati tufayli 1934-yili Moskva konservatoriyasi huzuridagi o‘zbek opera studiyasida o‘qidim. Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri ishga tushgach, 1939-yili shu teatr sahnasida birinchi bo‘lib M.Ashrafiy va S.Vasilenkonning “Bo‘ron” operasida Norgul obrazini yaratdim. Keyin esa R.Glier va T.Sodiqovning “Layli va Majnun” operasida Layli rolini ijro etdim...”.

“Sizning ajoyib ovozingiz bor ekan”

Shunday qilib, 1928-yili Halima Nosirova Samarqandda faoliyat ko‘rsatayotgan O‘zbek davlat namuna sayyor truppassi aktrisasiga aylanadi. Bu paytda truppada o‘zbek teatrlarining yorqin yulduzlari Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Obid Jalilov, Maxsuma Qoriyeva,

iltimos qilishadi. Halima esa rad javobini beradi. Bu voqeani kuzatib turgan Mannon Uyg‘ur Halimaga qaraydi va so‘raydi:

— Siz qo‘shiq aytasizmi?
— Ha, ba‘zi-ba‘zida.
— Unda bizga qo‘shiq aytib bering, — iltimos qiladi Uyg‘ur.

Halima avval sho‘x qo‘shiq kuylaydi. So‘ng mungli ovozda xalq qo‘shiqlaridan birini ijro etadi. Qo‘shiq tugashi bilan hamma uni olqishlab, qarsak chaladi.

— Sizning ajoyib ovozingiz bor ekan, — deydi hayajon bilan Mannon Uyg‘ur. — Tasavvur qilyapsizlarmi, o‘rtoqlar, bizni ajoyib kelajak kutib turibdi. Biz musiqali dramalarni ham sahnalashtirishimiz mumkin. Halima Tursunoyning o‘rnini bosadi. Vaqti kelib, mamlakatimizda ham o‘zbek operasi bo‘ladi.

Halima Nosirova o‘sha yillarni bunday eslaydi:

— Men o‘zbek kuy va ashularini, maqomlarini sevimli hofizlarimiz hamda ustoz sozandalarimiz Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Hoji Abdulaziz, Muhiddin Qoriyoqubov, Halim Ibodov, Yusufjon qiziq, Usta Olim Komilov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadijon Umurzov, Madrahim Sheroziydan o‘rgandim.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, jamoa G‘ulom Zafariyning birinchi o‘zbek musiqali dramasi — “Halima”ni sahnaga olib chiqadi. O‘zbek musiqasi bilimdoni To‘xtasin Jalilov “Halima”, “Farhod va Shirin”, “Tohir va Zuhrro” spektakllariga musiqa yozadi. Aynan u Halimaga o‘zbek qo‘shiqlarini teran his qilish va ijro etish sirlarini o‘rgatadi.

Komil Yashin bilan tanishuv

O‘sha yillarda Andijon teatri jamoasi ham qizg‘in ijod pallasiga kirgan edi. Teatrlar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, tajriba almashish maqsadida 1929-yili Andijon teatri rahbariyati repertuarlar bo‘limi boshlig‘i Komil No‘monovni Samarqandga yuboradi. U shaharga kelgan kunining ertasiyoq teatrga boradi. Sahnada “Arshin mol olon” spektakli ketayotgan edi. Bosh rolni esa yosh, nozikkina, o‘rta bo‘yli qizaloq ijro etardi. Spektakl tugagach, Komil sahna ortiga o‘tadi va o‘z muxlisleri davrasida qo‘lida gul bilan turgan Halimani ko‘radi.

— Kechirasizlar, aktrisa dam olishi kerak. Shu bois, hammalaringiz tashqariga chiqishingizni so‘rayman, — deydi baland ovozda Komil.

Halima boshini ko‘tardi va notanish yigitga hayron bo‘lib qaraydi. Komil fursatni boy bermaydi:

— Ruxsat bersangiz o‘zimni tanishtirsam, Komil No‘monov.
— Rahmat, men esa...
— Siz Halima Nosirovasiz, — deydi Komil undan oldinroq. Keyin Halimani anchadan buyon bilishini, Qo‘qonda internatda o‘qib yurganda internatga borganini, ular qo‘ygan spektaklni ko‘rganini aytib beradi, o‘zining she‘rlarini o‘qiydi...

Halima Nosirova bo‘lg‘usi turmush o‘rtog‘i, yozuvchi, dramaturg Komil Yashin (No‘monov) bilan shunday tanishgan edi. Oradan bir oy o‘tgach, ular turmush qurishga ahd qilishadi. Halima bu qarorini hamkasblariga aytganida, ko‘pchilik hayron bo‘ladi. Chunki ular turmush qurishsa, Halima teatridan tark etardi-da.

“Mannon Uyg‘urni eslang va qayting...”

Ular Andijonga yo‘l oladigan kun Mannon Uyg‘ur Halimani chaqirib, qat‘iy ohangda bunday deydi:

— Halimaxon, sizda dramatik aktyorlik ustunmi yoki xonandalik, buni bilmayman, ammo bir narsa aniq, siz sahnada qolishingiz kerak.

— Men hech qachon sahnani tark etmayman, — javob beradi Halima.

— Bilasizmi, agar sizga qiyinchilik tug‘ilsa va yordam kerak bo‘lsa, teatrimizni, Mannon Uyg‘urni eslang va qayting... Sizning joyingiz doimo saqlanib turadi.

Andijonda Halima teatrga ishga kiradi, Komil esa teatr uchun pyesalar topish bilan shug‘ullandi, maktabda adabiyotdan dars beradi. Ular juda kamtarin yashashadi.

1930-yil iyun oyida Andijon teatri O‘zbekiston san‘at arboblari delegatsiyasi tarkibida Moskvaga yo‘l oldi. Ular sobiq ittifoq xalqlari milliy san‘ati festivalida ishtirok etadi. Festivalda Andijon teatri “Halima” va “O‘rtoqlar” spektaklini namoyish qiladi. O‘zbek san‘atkorlarining qo‘shiq va raqslarini moskvalik san‘at ilxosmandlari katta olqishlar bilan kutib oladi.

O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida o‘zbek musiqa san‘ati qaysi yo‘lni tanlaydi, qaysi yo‘ldan boradi, Yevropa musiqasi bilan hamkorlik qanday natija beradi, degan savollar paydo bo‘lgandi. Halima Nosirova kuylagan mumtoz qo‘shiqlar barchaga birdek yoqar, shuning uchun Yevropa musiqasi milliy san‘atga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, degan qarashlar ham yo‘q emasdi. Shunday kunlarning birida Halima Nosirova Moskva davlat konservatoriyasi huzuridagi o‘zbek opera studiyasiga o‘qishga kiradi. U chuqur professionalizmsiz mahorat, demak san‘at ham bo‘lmaydi, degan qarorga kelgan edi. Konservatoriya o‘qib yurgan paytlarida Halima deyarli har kuni teatrlarda, konsertlarda bo‘lar, san‘atga oid leksiylalar tinglardi.

1936-yili Halima Nosirova konservatoriyani tugatib, Toshkentga qaytadi. Bu paytga kelib, Toshkent poytaxtga aylangan, 1931-yildan Samarqand teatri ham Toshkentga ko‘chgan edi. Yosh jamoa qisqa fursatda konsert va spektakllari bilan nafaqat O‘zbekiston kentlari, balki Parij, London, Qohira kabi shaharlarga borishga ham ulguragan, eng muhimi, hamma joyda muvaffaqiyat qozonayotgan edi.

1939-yili birinchi o‘zbek operasi — Muxtor Ashrafiy va Sergey Vasilenkonning “Bo‘ron” operasi sahnalashtiriladi. Shu kundan boshlab teatr O‘zbek davlat opera va balet teatri deb nomlanadi. Bu teatrdan Halima Nosirova deyarli hayotining qolgan barcha qismini o‘tkazdi. Bu paytga kelib, Halima va Komil Yashin butunlay o‘zlarini teatrga, adabiyotga, san‘atga bag‘ishlaydi. Oilaviy hayot ham o‘z yo‘lidan davom etadi. 1934-yilning bahorida ularning o‘g‘li Bahodir dunyoga keladi. 1940-yili esa qizi Nodira tug‘iladi. Bolalar tarbiyasi bilan ularning qarindoshlari shug‘ullanadi. Bolalar katta bo‘lgach esa o‘z yo‘llarini tanlashadi. Bahodirning musiqaga iqtidor bo‘lsa-da, Toshkent politexnika institutiga o‘qishga kiradi. Keyin Kiyevda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi va texnika fanlari nomzodi bo‘ladi. Nodira esa yoshligida xoreografiyaga qiziqadi, keyin Moskvaga borib, MDU huzuridagi Sharq tillari institutiga o‘qishga kiradi. O‘sha yerda turmushga chiqadi va o‘zi o‘qigan institutda uzoq yillar arab tilidan dars beradi.

Doli bobo xotiralari

Qo‘shiq inson mehnatida, hayotida, taqdirida doimiy yo‘ldoshdir. Xalqning sevimli san‘atkori Halima Nosirova Katta Farg‘ona, Toshkent, Log‘on, Chirchiq kanallari, Kattaqo‘rg‘on suv ombori, Farhod GESi

qurilishlarida, Mirzacho‘l, Qarshi, Jizzax cho‘llarini o‘zlashtirishda, shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida xalq ruhini ko‘tarishda o‘z san‘ati bilan faol qatnashadi.

Oqdaryolik Doli bobo bundan yigirma yillar avval Halima Nosirova bilan bog‘liq bir gapni aytgandi:

“Men Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishida ishtirok etganman. Qurilishga tez-tez san‘atkorlar tashrif buyurib, konsert berib ketardi. Bir kuni Halima Nosirova keldi. Jussasi o‘rtachadan kelgan ayol ekan. Maydonga tumonat odam yig‘ildi. Halima o‘zi uchun tayyorlangan joyga chiqib kuylashni boshladi. U paytlarda ovoz kuchaytiradigan apparatlar u yozda tursin, oddiy mikrofon ham yo‘q. Uning ovozi shunchalik kuchli ediki, ikki yuz, uch yuz metr uzoqda turgan ishchilarga ham aniq-tiniq eshitilardi. Ishchilar uning qo‘shiqlarini nafas olmay, berilib tinglashardi. Men hozir ham o‘ylab o‘yimning oxiriga yetolmayman. Nahotki, Halimaning ovozi shunchalik kuchli bo‘lgan. O‘sha paytlarda qurilishlarga artistlar tez-tez kelib, konsertlar berib turardi. Bu ishchilarning kayfiyatini ko‘tarib, ish unumiga ham foyda berardi. Konsertdan so‘ng ishchilar yana ham katta g‘ayrat bilan ishlardi”.

Doli boboning hikoyasini eshitgach, ko‘nglimdan quydigai fikrlar o‘tdi. O‘sha paytdagi xonandalar qanchalik olijanob bo‘lishgan ekan-a! Tinmay katta-katta qurilishlarda konsertlar berishgan. Kerak bo‘lsa, haftalab, oylar yurishgan bunday zarbdor qurilishlarda. Bugun ham mamlakatimiz katta qurilish maydoniga aylangan. Lekin o‘zini san‘atkor, shu yurt farzandi deb yurgan biror xonandaning biror qurilish maydoniga borib tekinga konsert berganini eshitmadim.

Har yili kuz va qishda Orolning qum bosgan joylarida zarbdor kunlar o‘tkazilib, saksouvl, qandim kabi butalar ekiladi. Bu yerga mamlakatimizning barcha viloyatlaridan odamlar borib ishlaydi. Lekin birotta hofiz shular huzurida bo‘lib, konsert berganini eshitmadim. Albatta, ular orasida Halima Nosirova kabi artistlarga havas qiladigan, ularni g‘oyibona ustoz biladiganlar ko‘p, lekin ular qilgan ishini qilishda esa...

Qoraqalpog‘iston uzoq, mayli, uni qo‘ya turaylik. Poytaxtimizda qancha qurilishlar bo‘lyapti. Masalan, “Toshkent siti”ni barpo etishda o‘z vaqtida minglab quruvchilar mehnat qildi. Artistlarimiz loaqal o‘sha quruvchilarga ham beminnat xizmat ko‘rsatgani yo‘q. Lekin ular qurgan binolar oldida kiplar olishga uyalishmayapti.

Dunyoni lol ayladi

Halima Nosirova yoqimli, jozibador, dillarni rom qiluvchi ovozi bilan Hindiston, Birma (hozirgi Myanma), Livan, Misr, Eron, Xitoy, Kanada kabi o‘nlab mamlakatlar muxlislarini o‘ziga maftun eta olgan san‘atkor edi. U, ayniqsa, o‘zbek opera san‘atida alohida maktab yaratdi va bu noyob san‘at rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. “Layli va Majnun”, “Gulsara”, “Karmen”, “Bo‘ron”, “Maysaraning ishi”, “Zaynab va Omon”, “Xorazm qo‘shigi”, “Ulug‘bek” singari o‘nlab operalarda bosh rollarni o‘ynadi. “Ushshoq”, “Chorgoh”, “Bayot”, “Samarqand ushshogi”, “Chapandozi Navo” singari maqom va xalq ashularini o‘ziga xos uslub bilan ijro etdi. U tojik, qozoq, arman, ozarbayjon, xitoy, rus, ukrain xalqlari qo‘shiqlarini ham maromiga yetkazib kuylay olardi.

San‘atkorning xizmatlari yuksak baholangan. Bir necha marta sobiq ittifoq davlat mukofotlari, 1971-yili Hamza nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti laureati bo‘ldi. 2000-yilda esa “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi.

O‘zbek san‘atining ulug‘ namoyandasi, betakror ovoz sohibasi Halima Nosirova 2002-yil 90 yoshida vafot etdi.

Bekqul EGAMQULOV tayyorladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DUK

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1246.

43301 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05